



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


QURILISH ISHLARI

2020-yil yanvar oyi

2020-yilning yanvar oyida Toshkent shahrida jami 1 209,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,8 %ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida qurilish ishlari hajmi


(mlrd.so'm)



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 267,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda 41,7 % ga koʻp ishlar bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi oʻtgan yildagi koʻrsatkich darajasidan 3,6 % punktga koʻpaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmining 63,7 % toʻgʻri kelib, oʻtgan yilning mos davridagi koʻrsatkichga nisbatan 3,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga toʻgʻri kelgan qurilish ishlari hajmi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 110,0 %ni tashkil etgan holda 770,4 mlrd. soʻm miqdorida qayd etildi.





Norasmiy sektor hissasiga toʻgʻri kelgan qurilish ishlari ulushi oʻtgan yildagi koʻrsatkichga nisbatan 2,6 % punktga koʻpayib, 14,2 %ga oʻsdi va 171,8 mlrd. soʻm miqdorida qayd etildi. Oʻtgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 106,9 %ni tashkil etgani kuzatildi.

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **68,2 %** yoki **825,5 mlrd. so'm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **242,8 mlrd. so'm**lik ishlar bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **90,8 %ni** tashkil qildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan **470,7 mlrd. so'm** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **61,1 %ni** yangi qurilish ishlari bo'yicha ishlar bajarildi.




Norasmiy sektor bo'yicha yangi qurilish hisobidan **112,0 mlrd. so'm** ishlar bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **65,2 % ni** tashkil etdi.



Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo`yicha tarkibi

(jamiga nisbatan % da)




-  *Bino va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari*
-  *Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari*
-  *Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar-joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



Bino va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Bino va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 14,7 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelgan ulush o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga kamayib, 61,0 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga ko'payib, 24,3 %ni tashkil qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 60,2 %ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 6,7 % punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 39,8 %ni (6,7 % punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,4 % punktga ko'paydi va 7,7 %ni tashkil etdi.

Qolgan 89,7 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 % punktga ko'paydi.

Mulkchilik shakllari bo`yicha qurilish ishlari tarkibi

(jamiga nisbatan %da)




Davlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar tomonidan 48,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,0 foizni tashkil qildi, yaʼni 2018-yil yanvar holatiga nisbatan 1,4 % punktga koʻpaydi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 1 160,7 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 96,0 foizni tashkil qildi.

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Tumanlar kesimida qurilish ishlari

(mlrd. so`m)




○—○ o`sinh sur`ati % da

Qurilish ishlarining tumanlar kesimida eng yuqori o`sinh sur`ati Chilonzor tumanida kuzatilgan bo`lib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`sinh sur`ati 117,6 %ni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari


(jamiga nisbatan %da)



● Yirik qurilish tashkilotlari ● Kichik korxonalar ● Norasmiy sektor

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Bektemir (tumandagi qurilish hajmining 46,1% ni tashkil etgan) va Mirobod (mos ravishda, 35,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Uchtepa tumanida 3,3 % kuzatildi. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to`g`ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlarining 76,6 %ni tashkil etdi.






TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Toshkent shahrining yuqori o'sish sur'ati – 114,8 % ga ko'tarildi:

- “Yunusobod” va “Sergeli” metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo'lida elektropoyezdlar uchun temir yo'l qurilishi;
- Ko'ksaroy majmuasining qurilishi;
- Xalqaro Islom markazi binosining qurilishi;
- Toshkent shahridagi “Navro'z” istirohat bog'ining qurilishi;

- Toshkent-Sharqiy aerodromi bazasida zamonaviy fuqaro aviatsiya aeroport majmuasi qurilishi kabi bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.



Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **Sh.Samiyev**
Aloqa telefoni: **(0371) 230-88-18**